

O'zbekiston Professional futbol ligasi
**O'ZBEKISTON KUBOGI VA
SUPERKUBOGI REGLAMENTI**
2025

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE



Mazkur reglament O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan. U O'zbekistonda professional va yarim professional futbol klublari o'rtasidagi 2025-yilgi musobaqalarni o'tkazishning shartlari va nizomlarini belgilovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Reglament FIFA va OFK nizomlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

Mundarija

1-bob	Umumiy qoidalar	4
2-bob	Musobaqalarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar	4
3-bob	Musobaqani boshqarish tartibi	5
4-bob	Musobaqa o'tkaziladigan joy	5
5-bob	O'zbekiston kubogi musobaqasining formati	6
6-bob	O'zbekiston Superkubogi musobaqasining formati	7
7-bob	O'zbekiston kubogi va Superkubogi sovrindorlarini taqdirlash tartibi	8
8-bob	Musobaqa ishtirokchilarining faoliyatini tartibga solish	8
9-bob	Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi	9
10-bob	Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi	9



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

1-bob

Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur reglament O'zbekiston kubogi, Superkubogi hamda Superligaga yakuniy yo'llanma beruvchi o'tish musobaqasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. O'zbekiston Professional futbol ligasi musobaqa doirasidagi futbol uchrashuvini o'tkazish uchun hakam va nazoratchilarni O'zFHM bilan imzolangan shartnoma asosida jalb qiladi.

1.3. Mazkur Reglamentda nazarda tutilmagan barcha holatlar yoki istisnalar "Superliga va Proliga reglamenti" bilan tartibga solinadi.

1.4. Mazkur Reglament ikki — o'zbek va ingliz tillarida chop etilgan. Ikki til o'rtasida ehtimoliy tafovut vujudga kelsa, u holda o'zbek tilida yozilgan qismi ustuvor hisoblanadi.

2-bob

Musobaqalarni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

2.1. Musobaqalar:

- O'zbekistondagi yarim professional futbol klublariga professional futbol klublari bilan bellashish imkoniyatini berish;
- futbol klublariga Chempionlar ligasi formatida bo'lgani kabi guruh bosqichi hamda pley-off bosqichidan boshlab mag'lub bo'lgan jamoa musobaqani tark etishi ko'zda tutilgan formatdagi qo'shimcha musobaqa tashkil etib berish;
- O'zbekistonning amaldagi chempioni hamda kubogi sohibi o'rtasida Superkubok uchrashuvi o'tkazish orqali muxlislar uchun tomoshabop musobaqa tashkil etib berish kabi maqsadlarni ifoda etadi.

2.2. Musobaqalarni o'tkazishda:

- O'zbekiston milliy hamda olimpiya terma jamoalarining xalqaro miqyosdagi rasmiy uchrashuvlarini inobatga olgan holda reglament doirasidagi futbol uchrashuvlarini FIFA hamda OFK nizomlari asosida tashkil qilish;
- O'zbekiston futbol klublarining xalqaro musobaqalardagi ishtirokiga ko'maklashish maqsadida taqvim rejalarini ishlab chiqish va bunda FIFA hamda OFK tomonidan o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarni, O'zbekistonda keng nishonlanadigan bayram tadbirlari hamda boshqa fors-major holatlarni inobatga olish;
- OFK tomonidan o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda ishtirok etadigan futbol klubini, shuningdek, Superliga va Proliganing kelasi mavsumdagi so'nggi ishtirokchisini aniqlash tizimini yaratish Liga vazifalariga kiradi.

3-bob

Musobaqani boshqarish tartibi

3.1. Musobaqani tashkil etish, o'tkazishni va boshqarishni nazorat qilish Liga tomonidan amalga oshiriladi.

3.2. Liga tomonidan “Superliga va Proliga reglamenti” hamda “Birinchi liga reglamenti” asosida tashkil etiladigan musobaqalar ishtirokchilari O‘zbekiston kubogi hamda o‘tish o‘yinlari musobakalarida ishtirok etish huquqiga ega.

3.3. Klub O‘zbekiston kubogi musobaqasida o‘z farm-jamoasi bilan ishtirok etishga haqli emas.

3.4. Musobaqa ushbu reglament, shuningdek, FIFA, OFK, O‘FA, Liga tomonidan tasdiqlangan va reglamentga kiritilgan qo‘shimchalar, maxsus nizomlar, ilovalar asosida o‘tkaziladi.

4-bob

Musobaqa o‘tkaziladigan joy

4.1. Musobaqa qatnashchisi Liga tomonidan ruxsat etilgan stadiona uchrashuvlar o‘tkazadi. Bunda Superliga, Proliga hamda Birinchi liga klubi mavsum uchun Liga bilan kelishilgan stadiona kubokning guruh bosqichi uchrashuvlarini qabul qiladi.

Musobaqaning pley-off bosqichi uchrashuvlari o‘tkaziladigan joy masalasi “Superliga va Proliga reglamenti” asosida tartibga solinadi.

4.2. Musobaqa qatnashchisi o‘z stadioniga ega bo‘lmasa hamda uy uchrashuvini o‘tkazish uchun boshqa tashkilotga qarashli stadion bilan shartnoma tuzish majburiyati yuzaga kelsa, u holda mazkur shartnoma Liga ishtirokida uch tomonlama tuzilishi talab etiladi.

4.3. Fors-major holatida uchrashuvni o‘tkazish uchun stadionni o‘zgartirishga to‘g‘ri kelsa, mezbon futbol klubiga Liga bilan uch tomonlama kelishuvga erishgan stadionlardan birida rasmiy uchrashuvni o‘tkazish uchun ruxsat beriladi.

4.4. Rasmiy uchrashuvdan bir kun avval mezbon klub Liga komissariga stadionning o‘yinga tayyorgarligi to‘g‘risida dalolatnoma taqdim etadi. Liga komissari mazkur dalolatnomasiz uchrashuvni o‘tkazmaslikka haqli.

4.5. Guruh bosqichida ikki jamoaning o‘zaro kelishib, uchrashuvni raqib maydoniga ko‘chirishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Stadioni tayyor bo‘lmagan jamoaga reglament bandidan kelib chiqib, texnik mag‘lubiyat yoziladi.

5-bob

O‘zbekiston kubogi musobaqasining formati

5.1. O‘zbekiston kubogi uch bosqichda tashkil etiladi va shu yo‘l bilan final ishtirokchilari aniqlab olinadi:

- saralash bosqichi;
- guruh bosqichi;
- pley-off bosqichi.

Saralash bosqichida:

- jamoalar sonidan kelib chiqib, bir yoki undan ortiq bosqichda uchrashuvlar tashkil etiladi;

- jamoalar o'zaro faqatgina bir marta maydonga tushadi va mag'lub jamoa musobaqa bilan xayrlashadi;
- barcha jamoa bir shaharga tashrif buyuradi va uchrashuvlar markazlashgan holda o'tkaziladi;
- teng huquqli qur'a orqali juftliklar aniqlab olinadi va bunda Liga jamoalarni bosqichlarga ajratishda ularning o'tgan mavsumdagi holatini inobatga oladi;
- Liga musobaqaning umumiy qatnashchilari sonidan kelib chiqib, saralash bosqichini bekor qilish huquqiga ega.

Guruh bosqichida:

- 32 ta jamoa ishtirok etadi va ular 8 ta guruhga qur'a yordamida ajratib olinadi;
- barcha jamoalar teng huquqli bo'lib, qur'a oldidan alohida savatlar shakllantirilmaydi va faqatgina saralash bosqichi g'oliblari har bir guruhning to'rtinchi jamoasi bo'lishi ta'minlanadi;
- barcha jamoa o'zaro bir martadan to'qnash keladi, qur'a natijasidan kelib chiqib jamoa turlicha miqdordagi uy-safar o'yinida ishtirok etishi mumkin;
- dastlabki ikki o'rindan joy olgan jamoa 1/8 final yo'llanmasini qo'lga kiritadi;
- birinchi bo'lgan jamoa 1/8 finalni o'z maydonida, ikkinchi bo'lgan jamoa 1/8 finalni safarda o'tkazadi.

Pley-off:

- 1/8 final, 1/4 final, 1/2 final uchrashuvlaridan iborat bo'ladi;
- har bosqichida jamoalar o'zaro faqatgina bir marta maydonga tushadi va mag'lub jamoa musobaqa bilan xayrlashadi;
- har bosqichiga alohida qur'a tashlanadi;
- 1/8 finali oldidan jamoalar ikki savatga: guruhda yetakchi bo'lganlar va guruhda ikkinchi bo'lganlarga ajratib olinadi;
- 1/8 finali guruh bosqichida o'zaro raqib bo'lgan ikki jamoani qayta uchrashtirishi mumkin;
- 1/4 finali uchun alohida qur'a tashlanadi va bunda barcha jamoa qur'a oldidan teng imkoniyat hosil qiladi;
- 1/2 finali uchun alohida qur'a tashlanadi va bunda 1/4 finalni safarda o'tkazgan jamoa bunday jamoalar soni 2 tadan ortiq bo'lmagan holatda 1/2 finalni o'z uyida qabul qilish huquqiga ega chiqadi;
- 1/2 finalda g'olib chiqqan ikki jamoa orasidan o'tgan mavsum Superliga yoki Proligadagi ishtiroki nisbatan yaxshiroq bo'lgani avtomatik ravishda final uchrashuvining nominal mezboniga aylanadi.

5.2. Superliga hamda Proliga klublari to'g'ridan to'g'ri guruh bosqichida ishtirok etadi (farm-jamoa bundan mustasno).

5.3. Birinchi liga jamoasi o'tgan mavsum yakuniga ko'ra birinchilikda erishgan natijasidan kelib chiqib, guruh bosqichiga to'g'ridan to'g'ri yoki saralash o'yinlari orqali yo'l oladi. Mazkur masala musobaqa ishtirokchilari sonidan kelib chiqib, qur'a oldidan Liga tomonidan hal qilinadi.

5.4. Musobaqaning barcha uchrashuvlari faqatgina bir marta o'tkaziladi. Ularning har biri 45 daqiqadan ikki taymdan iborat bo'ladi.

5.5. Saralash bosqichida g'olib jamoani dastlabki 90 daqiqa ichida aniqlashning imkoni bo'lmasa, qo'shimcha taymlarsiz navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

5.6. Guruh bosqichi yakuniga ko'ra turnir jadvali "Superliga va Proliga reglamenti"ning 8-bobi bilan tartibga solinadi.

5.7. Pley-off bosqichi va final uchrashuvida g'olib jamoani dastlabki 90 daqiqa ichida aniqlashning imkoni bo'lmasa, har biri 15 daqiqadan iborat ikki qo'shimcha taym belgilanadi. Shunda ham g'olib aniqlanmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

5.8. O'zbekiston kubogining final uchrashuviga mezbonlik qiluvchi stadion nomiga qur'a yordamida aniqlik kiritiladi. Bunda Liga final uchrashuviga mezbonlik qilish uchun da'vogar stadionlar ro'yxatini mustaqil belgilaydi va avvalgi yillarda final o'yiniga mezbonlik qilgan stadion arizasini qabul qilmaslik huquqiga ega bo'ladi.

6-bob

O'zbekiston Superkubogi musobaqasining formati

6.1. Superliga va O'zbekiston kubogining amaldagi g'oliblari ishtirokida mavsum oldidan (istisno holatlarda mavsum startidan keyin) Superkubok o'yini bo'lib o'tadi.

6.2. Kubok va chempionlik bir klubga nasib qilgan bo'lsa, shu bobning 1-bandiga istisno tariqasida Superkubok o'yinida Superliganing amaldagi chempioni va vitse-chempioni o'zaro maydonga tushadi.

6.3. Superkubok o'yinida g'olib jamoani dastlabki 90 daqiqa ichida aniqlashning imkoni bo'lmasa, qo'shimcha taymlarsiz navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

6.4. Superkubok o'yiniga mezbonlik qiluvchi stadion Liga tomonidan belgilab olinadi.

7-bob

O'zbekiston kubogi va Superkubogi sovrindorlarini taqdirlash tartibi

7.1. O'zbekiston kubogida g'olib chiqqan futbol klubiga musobaqaning maxsus kubogi hamda 50 dona "oltin" medal taqdim etiladi.

7.2. O'zbekiston Superkubogida g'olib chiqqan futbol klubiga Superkubok uchun ishlangan maxsus kubok taqdim etiladi.

7.3. Taqdirlash atributikalari Liga hisobidan tayyorlanadi.

8-bob

Musobaqa ishtirokchilarining faoliyatini tartibga solish

8.1. "Superliga va Proliga reglamenti"ning 10.11-bandidan kelib chiqib, futbol klubi O'zbekiston kubogining avvaldan rejalashtirilgan rasmiy uchrashuvida ishtirok etmasa, u ishtirok etayotgan har ikki musobaqa doirasidagi texnik mag'lubiyat yozilgan o'yinlar umumiy ko'rinishda hisoblanadi va klubga nisbatan shu bandeda qayd etilgan reglamentning 10.12-bandi bo'yicha chora ko'riladi.

8.2. O'zbekiston kubogi g'olibi OFK litsenziyani qo'lga kiritgan bo'lsa, mazkur musobaqaning final uchrashuvida ishtirok etgan jamoa xalqaro maydon uchun yo'llanmani qo'lga kiritadi. Agar final ishtirokchisi ham OFK litsenziyasiga ega bo'lmagan bo'lsa, u holda xalqaro maydon ishtirokchisi Superliganing mos ravishdagi litsenziyani qo'lga kiritgan bo'lgan keyingi jamoasi bo'ladi.

9-bob

Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi

9.1. Superliga va Proliga futbol klubi "Superliga va Proliga reglamenti" talablarini bajarish shartida, Birinchi liga jamoasi esa "Birinchi liga reglamenti" talablarini bajarish shartida O'zbekiston kubogi musobaqasida ishtirok etadi.

10-bob

Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi

10.1. O'zbekiston kubogining saralash va guruh bosqichlarida, shuningdek, O'zbekiston Superkubogi o'yinida futbol klubiga uch urinishda 5 ta (bunda tanaffus vaqtidagi o'zgarish urinish sifatida qayd etilmaydi) o'zgarishni amalga oshirish uchun ruxsat etiladi.

10.2. O'zbekiston kubogining pley-off o'yinlari hamda final uchrashuvining asosiy vaqtidagi o'zgarishlar mazkur bobning 1-bandi bilan tartibga solinadi. Shuningdek, qo'shimcha ikki taym uchun futbol klubi yana bir o'zgarishni amalga oshirish huquqiga ega. Bunda har qanday holatda ham futbol klubining butun uchrashuv davomidagi futbolchini almashtirishga bo'lgan urinishlari soni 3 tadan oshmasligi lozim. Qo'shimcha taymlargacha bo'lgan hamda qo'shimcha taymlar o'rtasidagi tanaffus vaqtida amalga oshirilgan o'zgarish urinish sifatida qayd etilmaydi.

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE